XXI ASR O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATIDA BOLA QAHRAMONINING SUBYEKTIV FAOLLASHUVI VA POETIK INDIVIDUALLIGI

L.A.Uzaqova[1]

1. O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti v,b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Anvar Obidjon va Dilshod Rajab she’riyati misolida)

Mas'ul muallif: Uzaqova Lola Abdurashitovna, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti v,b., falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Anvar Obidjon va Dilshod Rajab she’riyati misolida).

e-mail: lolauzakova00@gmail.com

Received: 26 Oktabr 2026
Accepted: 31 Oktabr 2026
Published: 05 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Uzaqova, L. A. XXI ASR O‘ZBEK BOLALAR SHE’RIYATIDA BOLA QAHRAMONINING SUBYEKTIV FAOLLASHUVI VA POETIK INDIVIDUALLIGI / L. A. Uzaqova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 190–195.

Annotatsiya. Maqolada XXI asr o‘zbek bolalar she’riyatida bola qahramoni talqinining badiiy-poetik xususiyatlari Anvar Obidjon va Dilshod Rajab ijodi misolida tadqiq etiladi. Bola obrazining mustaqil fikrlovchi, voqelikka shaxsiy munosabat bildiruvchi, savol qo‘yuvchi, tashabbus ko‘rsatuvchi va ijodiy tafakkurga ega badiiy subyekt sifatida namoyon bo‘lish mexanizmlari o‘rganiladi. Anvar Obidjonning O‘g‘irlangan pahlavon to‘plamidagi “Masxaraboz bola”, “Birinchi maqtov”, “Osmondan tushgan sozanda”, “Olmazorga hujum” she’rlari hamda Dilshod Rajabning Baxshi bola - yaxshi bola to‘plamidagi “Uchqunbekning savollari”, “So‘z o‘yini - zo‘r o‘yin”, “Shikoyat daftari” turkumlari materiallari asosida qahramonning nutqiy, tafakkuriy, xulqiy va ijodiy faolligi tahlil qilinadi. Qiyosiy tahlil natijasida zamonaviy bola qahramonining poetik individualligini shakllantiruvchi badiiy belgilar tizimi aniqlanadi. Bola obrazining yangilanishi mavzuviy o‘zgarish bilangina emas, balki uning badiiy matndagi subyektiv maqomi va mazmun yaratishdagi ishtiroki bilan belgilanishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: o‘zbek bolalar she’riyati, bola qahramoni, subyektiv faollashuv, poetik individuallik, mustaqil fikrlash, nutqiy faollik, ijodiy tafakkur, yumor, qiyosiy tahlil, Anvar Obidjon, Dilshod Rajab.

Аннотация. В статье исследуются художественно-поэтические особенности трактовки образа ребёнка в узбекской детской поэзии XXI века на материале творчества Анвара Обиджона и Дилшода Раджаба. Рассматриваются механизмы формирования ребёнка как самостоятельного художественного субъекта, способного выражать собственное отношение к действительности, задавать вопросы, проявлять инициативу и демонстрировать творческое мышление. На материале стихотворений из сборника O‘g‘irlangan pahlavon Анвара Обиджона и сборника Baxshi bola - yaxshi bola Дилшода Раджаба анализируются речевая, познавательная, поведенческая и творческая активность героя. В результате сравнительного анализа определяются художественные признаки, формирующие поэтическую индивидуальность современного детского персонажа.

Ключевые слова: узбекская детская поэзия, образ ребёнка, субъективная активность, поэтическая индивидуальность, самостоятельное мышление, речевая активность, творческое мышление, юмор, сравнительный анализ.

Abstract. This article examines the artistic and poetic features of the child hero in twenty-first-century Uzbek children's poetry, focusing on the works of Anvar Obidjon and Dilshod Rajab. It explores the mechanisms through which the child is represented as an independent artistic subject capable of expressing personal attitudes, asking questions, taking initiative, and demonstrating creative thinking. Selected poems from Anvar Obidjon's O‘g‘irlangan pahlavon and Dilshod Rajab's Baxshi bola - yaxshi bola are analyzed in terms of verbal, cognitive, behavioral, and creative agency. The comparative analysis identifies the artistic features that shape the poetic individuality of the contemporary child character. The article argues that the transformation of the child hero is determined not merely by thematic changes but also by the character's subjective position and participation in the creation of poetic meaning.

Keywords: Uzbek children's poetry, child hero, subjective agency, poetic individuality, independent thinking, verbal activity, creative thinking, humor, comparative analysis, Anvar Obidjon, Dilshod Rajab.

Kirish. Bolalar adabiyoti jamiyatning ma’naviy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyoti bilan uzviy aloqada rivojlanadigan badiiy-estetik hodisadir. Unda bola shunchaki tasvir obyekti sifatida emas, balki muayyan davrning dunyoqarashi, qadriyatlari, ijtimoiy munosabatlari va tafakkur xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi badiiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan bolalar adabiyotidagi qahramon talqini davrlar almashinuvi bilan o‘zgarib, yangi mazmun va poetik xususiyatlar bilan boyib boradi.

XXI asr o‘zbek bolalar she’riyati ushbu jarayonning muhim bosqichini tashkil etadi. Zamonaviy ijtimoiy muhit, axborot almashinuvi sur’atining ortishi, ta’lim tizimidagi yangilanishlar, texnologik taraqqiyot va bolalarning axborot makoniga faol kirib borishi

ularning dunyoni idrok etish usullariga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada bolaga munosabat, uning badiiy adabiyotdagi vazifasi va obraz sifatidagi imkoniyatlari ham yangicha talqin qilinmoqda.

An'anaviy bolalar she'riyatida bola qahramoni ko'pincha tarbiyaviy g'oyani ifodalovchi, kattalar tomonidan ilgari surilgan axloqiy me'yorlarni o'zlashtiruvchi yoki muayyan xulq-atvor namunasini namoyon etuvchi obraz sifatida tasvirlangan. Bunday talqin bolalar adabiyotining tarbiyaviy vazifasi bilan bevosita bog'liq edi. Biroq zamonaviy badiiy tafakkurda bola qahramonining vazifasi kengaymoqda: u tayyor xulosalarni qabul qiluvchi obraz bo'lib qolmasdan, voqelikni mustaqil idrok etuvchi, savol beruvchi, baholovchi, munosabat bildiruvchi va o'z qarashlarini ifodalovchi faol badiiy subyekt sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Bu o'zgarish bola obrazining shunchaki mavzuviy yangilanishi emas, balki uning badiiy-funksional mohiyatidagi o'zgarishdir. Chunki qahramonning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi va tashabbuskorligi uning asardagi ishtirokini sifat jihatidan o'zgartiradi. U voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatadigan, badiiy mazmunning shakllanishida faol qatnashadigan obraz darajasiga ko'tariladi.

Mazkur masalani Anvar Obidjon va Dilshod Rajab she'riyati misolida o'rganish alohida ilmiy ahamiyatga ega. Har ikki ijodkor o'zbek bolalar she'riyatining rivojiga hissa qo'shgan shoirlar sifatida bola dunyosi, uning tasavvuri, qiziqishlari va ruhiy olamini badiiy ifodalashga murojaat qiladi. Ularning ijodini qiyosiy o'rganish bola qahramonining poetik talqinidagi umumiy va individual xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, zamonaviy bolalar she'riyatida bola obrazining badiiy-funksional xususiyatlarini aniqlash zarurati bilan, ikkinchi tomondan, qahramonning mustaqil fikrlash va o'ziga xos munosabat bildirish imkoniyatlarini poetik jihatdan tadqiq etish ehtiyoji bilan belgilanadi.

Tadqiqotning maqsadi Anvar Obidjon va Dilshod Rajab she'riyatida bola qahramonining subyektiv faollashuvi hamda poetik individualligi qanday badiiy vositalar orqali namoyon bo'lishini aniqlashdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

zamonaviy bolalar she'riyatida bola qahramoni talqinining nazariy xususiyatlarini aniqlash;

subyektiv faollashuv tushunchasining badiiy mazmunini izohlash;

bola qahramonining nutqiy, tafakkuriy va xulqiy faolligini ifodalovchi poetik belgilarni tasniflash;

Anvar Obidjon she'riyatida bola dunyoqarashi va individual munosabatning ifodalanish xususiyatlarini o'rganish;

Dilshod Rajab she'riyatida bolaning bilishga intilishi, ijodiy fikrlashi va tashabbuskorligini namoyon etuvchi jihatlarni aniqlash;

ikki ijodkor she'riyatidagi umumiy va farqli poetik xususiyatlarni qiyoslash.

Tadqiqotning asosiy farazi shundan iboratki, XXI asr o'zbek bolalar she'riyatida bola qahramonining badiiy yangilanishi, avvalo, uning badiiy matndagi subyektiv maqomi o'zgarishi orqali namoyon bo'ladi. Bu jarayonda bola qahramoni voqelikni mustaqil anglash, unga munosabat bildirish, savol qo'yish, o'z fikrini ifodalash va ijodiy yechim taklif qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda adabiyotshunoslikning qiyosiy-tipologik, poetik tahlil, obraz tahlili hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi.

Qiyosiy-tipologik metod (turli ijodkorlar asarlaridagi o'xshash va farqli badiiy xususiyatlarni qiyoslash usuli) Anvar Obidjon va Dilshod Rajab she'riyatida bola qahramoni talqinidagi umumiy qonuniyatlar hamda individual xususiyatlarni aniqlashga xizmat qiladi.

Poetik tahlil (she'riy matnning mazmuni, shakli va badiiy ifoda vositalarini o'rganish usuli) orqali qahramon xarakterini shakllantiruvchi nutqiy, tasviriy va kompozitsion vositalar aniqlandi. Xususan, savol-javob shakli, murojaat, takror, kinoya, yumor, jonlantirish va dialogning bola obrazini ochishdagi vazifasi o'rganildi.

Obraz tahlili (badiiy qahramonning xarakteri, dunyoqarashi, xatti-harakati va asardagi funksiyasini o'rganish) qahramonning subyektiv faollashuv darajasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqot materiali sifatida Anvar Obidjonning 2006-yilda Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan O'g'irlangan pahlavon to'plami hamda Dilshod Rajabning 2016-yilda "O'qituvchi" nashriyotida chop etilgan Baxshi bola - yaxshi bola to'plami tanlandi. Birinchi to'plam 136 sahifadan, ikkinchisi 144 sahifadan iborat.

Bola qahramonining subyektiv faollashuvini aniqlash uchun quyidagi tahliliy mezonlar asos qilib olindi:

Nutqiy faollik - qahramonning o'z fikrini mustaqil ifodalashi, savol berishi, bahslashishi, izohlashi va voqelikka shaxsiy munosabat bildirishida namoyon bo'ladi.

Tafakkuriy faollik - bolaning hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini anglashga intilishi, kuzatishi, taqqoslashi va xulosa chiqarishida ko'rinadi.

Xulqiy faollik - qahramonning mustaqil qaror qabul qilishi, tashabbus ko'rsatishi va muayyan harakatni o'zi boshlashida namoyon bo'ladi.

Ijodiy faollik - bolaning yangi fikr, tasavvur, obraz yoki yechim yaratishi, mavjud voqelikni o'z tasavvuri asosida qayta talqin qilishida yuzaga chiqadi.

Poetik individuallik - qahramonning nutqi, fikrlash tarzi, hissiy reaksiyasi, qiziqishlari va munosabatlaridagi o'ziga xoslik orqali shakllanadi.

Mazkur mezonlar tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan tahliliy model bo'lib, qahramon obrazini faqat mavzu yoki tarbiyaviy mazmun nuqtayi nazaridan emas, balki uning badiiy subyekt sifatidagi faoliyatini o'rganishga imkon beradi.

Natijalar

Bola qahramonining subyektiv faollashuvi - zamonaviy poetik tafakkur hodisasi.

Badiiy adabiyotda qahramonning subyektiv maqomi uning voqelikni idrok etish, baholash va unga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Subyektiv faollashuv tushunchasi bu o'rinda bolaning asarda faqat tasvirlanayotgan shaxs bo'lib qolmasdan, balki badiiy mazmunni shakllantirishda faol ishtirok etuvchi obrazga aylanishini anglatadi.

Bola qahramonining bunday maqomga ko'tarilishi uning xarakterini ochish usullarini ham o'zgartiradi. An'anaviy tasvirda qahramonning xususiyatlari ko'pincha muallif izohi, kattalar munosabati yoki tayyor axloqiy xulosalar orqali ifodalangan bo'lsa, subyektiv faollashuv kuchaygan matnlarda uning shaxsiy nutqi, mustaqil fikri, savollari va xatti-harakatlari muhim badiiy vositaga aylanadi.

Bu jarayonni uch badiiy holat orqali izohlash mumkin. Birinchi holatda bola qahramoni voqealarning kuzatuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchi holatda u voqelikka munosabat bildiruvchi, savol qo'yuvchi va baholovchi obrazga aylanadi. Uchinchi holatda esa bolaning tashabbusi, qarori yoki ijodiy yechimi badiiy voqelikning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur holatlar qat'iy tarixiy davrlarga ajratilmaydi. Ular turli davrlarda yaratilgan asarlarda uchrashi mumkin bo'lgan badiiy modellar hisoblanadi. Shu bois zamonaviy she'riyatdagi yangilanishni faqat eski va yangi obrazlarni qarama-qarshi qo'yish orqali emas, balki qahramonning badiiy matndagi funksiyasi va ifoda imkoniyatlari o'zgarishi asosida baholash lozim.

Bola qahramonining subyektiv faollashuvi, eng avvalo, uning nutqida namoyon bo'ladi. Chunki nutq qahramonning fikrlash tarzi, ruhiy holati, dunyoqarashi va voqelikka munosabatini ochuvchi muhim vositadir. Bolaning savol berishi, hodisalarni o'zicha izohlashi, kutilmagan xulosalar chiqarishi uning mustaqil tafakkurini namoyon etadi.

Bunda muhim jihat shundaki, bola nutqi kattalar nutqining soddalashtirilgan ko'rinishi bo'lib qolmasligi kerak. U bolaning yosh xususiyati, bilish tajribasi, hissiy olami va individual dunyoqarashini aks ettirishi lozim. Ana shunday nutqiy individuallik obrazning tabiiyligi va badiiy ishonarliligini ta'minlaydi.

Anvar Obidjon she'riyatida bola qahramonining nutqiy va ijtimoiy faolligi

Anvar Obidjon ijodining o'zbek bolalar adabiyotidagi o'rni, avvalo, bola ruhiyati va dunyoqarashini o'ziga xos badiiy usulda ifodalashga intilishi bilan belgilanadi. Uning bolalar uchun yaratilgan asarlarida yumor, kinoya, obrazlilik, kutilmagan tasvir va xalqona ifoda imkoniyatlari muhim o'rin tutadi.

Shoirning O'g'irlangan pahlavon to'plamidagi "Masxaraboz bola" she'ri bola qahramonining mustaqil nutqiy pozitsiyasini ochish jihatidan e'tiborga molik. She'r lirik qahramonining o'zini tanishtirishi bilan boshlanadi:

"Katta qizil burunli
Qiziqchiman, bilasiz.
Aybingizni gapirsam,
Xafa bo'lmay kulasiz" [1, 6-b.].

Mazkur misralarda qahramon o'zining kimligini, qanday vazifani bajarishini va atrofdagilar bilan munosabatini bevosita o'zi belgilaydi. U muallif tomonidan tavsiflanayotgan passiv obraz emas, balki o'zini tanishtiruvchi, faol nutq egasi sifatida namoyon bo'ladi.

She'rning keyingi bandida:

"Gapirishdan qo'rqqanlar
Olsin mening o'rnimni.
Qarzga berib turaman
Katta qizil burnimni" [1, 6-b.],

degan misralar qahramon xarakteridagi dadillik va o'ziga ishonchni kuchaytiradi. Bu yerda qizil burun oddiy tashqi belgi bo'lib qolmay, balki erkin gapirish, kamchiliklarni oshkora aytish va ijtimoiy munosabat bildirish imkoniyatining ramziy ifodasiga aylanadi.

Ayniqsa, "Gapirishdan qo'rqqanlar" jumlasi qahramonning o'zini boshqalardan farqlashini ko'rsatadi. U o'z nutqiy pozitsiyasini anglaydi va undan faxrlanadi. Shunday qilib, she'rda bola qahramonining faolligi jismoniy harakatdan ko'ra nutqiy jasorat va mustaqil munosabat orqali ifodalanadi.

Mazkur she'rning badiiy xususiyati shundaki, muallif tarbiyaviy mazmunni bevosita nasihat shaklida bermaydi. Qahramonning o'zini tutishi, gapirish usuli va yumoristik munosabati orqali o'quvchida fikr uyg'otadi. Bu holat bola obrazining estetik ta'sirchanligini oshiradi.

Anvar Obidjonning "Birinchi maqtov" she'rida esa bola qahramonining ijtimoiy vaziyatni o'zicha talqin qilishi va nutq orqali o'z fikrini ifodalashi kuzatiladi. She'r dialog shaklida qurilgan:

"– Ko'rinmaysan, Mamajon?
– O'qiyapman, ammajon.
– O'qishlaring durustdir?
– „Balli!" dedi direktor.
– Nega „balli" dedi u?
– Shoshib kelar edi u,
Men darrov yo'l bo'shatib,
Salom berdim o'xshatib!" [1, 7-b.].

Kattalarning savoliga bola kutilgan javobni bermaydi. Direktorning maqtovini o'qishdagi muvaffaqiyat bilan emas, balki o'zining xatti-harakati bilan bog'laydi. Mazkur holat qahramonning bolalarcha mantiqini, vaziyatni o'z tajribasi

asosida izohlashini ko‘rsatadi.

She’rning yumoristik ta’siri aynan kutilgan va kutilmagan ma’no o‘rtasidagi tafovutdan yuzaga keladi. O‘quvchi dastlab direktorning maqtovini o‘qishdagi muvaffaqiyat bilan bog‘laydi, biroq qahramonning javobi bu taxminni o‘zgartiradi. Natijada bola obrazining individual tafakkuri va vaziyatni o‘zicha anglash xususiyati namoyon bo‘ladi.

Bu yerda bola qahramonining subyektiv faolligi ikki jihatda ko‘rinadi: birinchidan, u savolga mustaqil javob beradi; ikkinchidan, o‘z xatti-harakatini muayyan sabab bilan izohlaydi. Demak, dialog she’rda nafaqat nutqiy aloqa, balki xarakter yaratish vositasi vazifasini ham bajaradi.

“Osmondan tushgan sozanda” she’rida esa bolaning ijodiy tasavvuri va tabiat hodisalarini o‘ziga xos idrok etishi asosiy o‘ringa chiqadi. Lirik qahramon yomg‘irni oddiy tabiat hodisasi sifatida emas, balki turli cholg‘ularni chala oladigan sozanda sifatida tasavvur qiladi:

“Men barglardan chang yasayman,
Dutor qilib boshoqlarni.
Goh uraman chirmandani,
Tomingizni tiriqlatib.
Tomchilarni o‘ynataman,
Ko‘lmaklarda diriklatib” [1, 8-b.].

Bu tasvirda bolaning ijodiy faolligi tabiatdagi predmetlarni yangi badiiy vazifaga ko‘chirish orqali namoyon bo‘ladi. Barg, boshoq, tomchi va ko‘lmak qahramon tasavvurida musiqa olamining unsurlariga aylanadi.

She’rning yakunidagi:

“Meni oddiy yomg‘ir deysiz,
Bilmaysizki, sozandaman” [1, 8-b.],

misralari esa qahramonning o‘zligini anglash va o‘ziga xosligini e’tirof etish holatini ifodalaydi. U o‘zini boshqalarning tashqi kuzatuvi bilan cheklamaydi, balki o‘z tasavvuridagi mohiyatni namoyon qiladi.

Mazkur she’rda bolaning subyektiv faollashuvi ijodiy idrok orqali yuzaga chiqadi. Qahramon mavjud predmet va hodisalarni o‘z tasavvuri asosida qayta talqin qilib, yangi badiiy olam yaratadi. Bu holat bola obrazining ijodiy individualligini belgilovchi muhim xususiyatdir.

“Olmazorga hujum” she’rida esa bolalarning jamoaviy harakati va o‘yin orqali voqelikni qayta tashkil etishi tasvirlanadi. She’r:

“Piyodalar to‘plandi,
Kamonchalar o‘qlandi,
Shaydir yog‘och miltiqlar” [1, 6-b.],

misralari bilan boshlanadi. Oddiy bolalar o‘yini harbiy yurish manzarasiga aylantiriladi. “Piyodalar”, “kamonchalar”, “otliqlar” kabi birliklar bolalarning xayoliy harakatlarini ifodalovchi obrazli vositalardir.

She’rda:

“Bog‘ni qo‘qqis bosamiz,
Olma yeymiz rosa biz,
Baqirishib, chinqirib” [1, 6-b.],

misralari bolalarning o‘zaro kelishilgan harakatini ko‘rsatadi. Ular o‘yin qoidalarini o‘zlari belgilaydi, vaziyatni rejalashtiradi va harakatni amalga oshiradi. Shu jihatdan jamoaviy qahramon ham faol subyekt sifatida namoyon bo‘ladi.

Biroq she’rni faqat tashabbuskorlikni ulug‘lovchi matn sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Undagi o‘yin va “hujum” tasviri bolalarcha tasavvur, sho‘xlik va yumor asosida qurilgan. Demak, qahramonning faolligi badiiy jihatdan o‘yin estetikasi bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Anvar Obidjon she’riyatidagi mazkur misollar bola qahramonining nutqiy, tafakkuriy va ijodiy faolligi bir-biridan ajralmagan holda yuzaga chiqishini ko‘rsatadi. Qahramonning o‘zini tanishtirishi, vaziyatga izoh berishi, tabiat hodisasini qayta tasavvur qilishi yoki jamoaviy o‘yinni tashkil etishi uning poetik individualligini shakllantiradi.

Dilshod Rajab she’riyatida bilish faoliyati va ijodiy tafakkur

Dilshod Rajab ijodida bolalar dunyosi, ularning qiziqishlari, bilishga intilishi va atrof-muhit bilan munosabati muhim badiiy yo‘nalishlardan biri sifatida ko‘zga tashlanadi. Shoirning Baxshi bola - yaxshi bola to‘plamida bolalar tafakkuri, nutqiy topqirligi, tabiat va kundalik hayot hodisalarini anglash jarayoniga daxldor turkumlar mavjud.

Safo Matchonov Dilshod Rajab she’riyatidagi ruhiy talqin va shakliy izlanishlarni tahlil qilar ekan, shoirning bolalar nigohi orqali voqelikni estetik idrok etishga intilishini alohida ta’kidlaydi. Tadqiqotchi “Uchqunbekning savollari”, “Fikratjonning fikricha”, “Shikoyat daftari” va “So‘z o‘yini - zo‘r o‘yin” kabi turkumlarga murojaat qilib, ularda bolaning atrof-muhitni bilishga intilishi va so‘z bilan ishlash imkoniyatlari namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi [3, 68–70-b.].

“Uchqunbekning savollari” turkumi bola qahramonining tafakkuriy faolligini o‘rganish uchun alohida ahamiyatga ega. Mazkur turkumda jonivorlarning tashqi ko‘rinishi, xatti-harakati, ayrim tabiat hodisalari va ularning sabablari bilan bog‘liq savollar qo‘yiladi. Jumladan, kurkaning hurpayib yurishi, zebraning tanasidagi chiziqlar, tipratikanning tikanlari, shamolning paydo bo‘lishi va jirafaning uzun bo‘yni kabi masalalar bolalarcha idrok doirasida yoritiladi [3, 68-b.].

Savol qo‘yish bu yerda oddiy nutqiy harakat emas, balki bilish ehtiyojining badiiy ifodasidir. Bola atrofdagi hodisalarni shunchaki kuzatmaydi, balki ularning sababini anglashga intiladi. Natijada qahramonning tafakkuriy faolligi she’riy matnning mazmuniy asosiga aylanadi.

Mazkur turkumning muhim poetik xususiyati savolning badiiy harakatni yuzaga keltirishidir. Savol qahramonning

bilmagan narsasini aniqlash vositasi bo‘lish bilan birga, o‘quvchini ham fikrlashga undaydi. Bunda she’rning didaktik vazifasi tayyor ma’lumot berishdan ko‘ra, bilishga qiziqish uyg‘otish orqali amalga oshadi.

Dilshod Rajabning “So‘z o‘yini - zo‘r o‘yin” turkumi esa bola qahramonining lisoniy tafakkuri va ijodiy faolligini namoyon etadi. Safo Matchonov ushbu turkumda so‘zlarning teskari o‘qilishi, harf almashishi yoki ayrim tovushlarning o‘zgarishi natijasida yangi ma’nolar yuzaga kelishiga e’tibor qaratadi. Masalan, “qo‘y - yo‘q”, “zog‘ - g‘oz”, “kit - tik” kabi birliklar so‘z shakli va ma’no munosabatini anglashga xizmat qiladi [3, 68-b.].

Bunday poetik o‘yinlarda bola tayyor til materialini qabul qiluvchi emas, balki uni o‘zgartirib, yangi ma’no imkoniyatlarini kashf etuvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. So‘zning shakli bilan ma’nosi o‘rtasidagi munosabatni kuzatish, harflar va tovushlar bilan tajriba o‘tkazish bolaning ijodiy tafakkurini faollashtiradi.

Shu jihatdan “So‘z o‘yini - zo‘r o‘yin” turkumi faqat bolalarni qiziqtiruvchi til mashqi emas. U til birliklarining shakliy va semantik imkoniyatlarini badiiy o‘yin orqali ochib beruvchi poetik hodisa sifatida ham ahamiyatlidir.

Dilshod Rajabning “Shikoyat daftari” turkumida esa narsa va jonivorlarning shikoyati shaklidan foydalanish orqali atrof-muhitga munosabat bildirish imkoniyati yuzaga keladi. Bunday usulda predmet yoki jonivor nomidan gapirish, ularning holatini insoniy munosabatlar bilan bog‘lash va shu orqali muayyan xulosa chiqarishga undash muhim badiiy vazifani bajaradi.

Bu yerda bola qahramonining faolligi bevosita harakatdan ko‘ra, tasavvur va anglash jarayonida ko‘rinadi. U narsa-hodisalarni jonlantiradi, ularning holatini tasavvur qiladi va ularga munosabat bildirishni o‘rganadi.

Dilshod Rajab she’riyatida bilish va ijodiy tafakkurning o‘zaro aloqasi ayniqsa muhimdir. Bola savol berish orqali bilishga intiladi, so‘z o‘yini orqali tilning yangi imkoniyatlarini kashf etadi, jonlantirish va shikoyat shakli orqali esa atrofdagi olamni badiiy qayta idrok qiladi.

Bola qahramonining poetik individualligi: qiyosiy tahlil

Poetik individuallik badiiy qahramonning boshqa obrazlardan ajralib turishini ta’minlovchi nutqiy, ruhiy, xulqiy va tafakkuriy xususiyatlar birligidir. Bola qahramonining individualligi uning yoshi yoki tashqi ko‘rinishi bilangina belgilanmaydi. U, avvalo, olamni qanday idrok etishi, qanday fikrlashi, qanday munosabat bildirishi va qanday harakat qilishi orqali namoyon bo‘ladi.

Anvar Obidjon va Dilshod Rajab ijodini aynan shu mezonlar asosida qiyoslash ikki ijodkor poetikasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashga imkon beradi.

Anvar Obidjon she’riyatida bola qahramonining individualligi ko‘proq yumor, kinoya, kutilmagan javob, o‘ziga xos nutqiy munosabat va ijodiy tasavvur orqali ochiladi. “Masxaraboz bola” she’rida qahramon o‘zini erkin fikr bildiruvchi shaxs sifatida namoyon etsa, “Birinchi maqtov”da vaziyatni bolalarcha mantiq asosida talqin qiladi. “Osmondan tushgan sozanda”da esa tabiat hodisasini ijodiy tasavvur orqali qayta yaratadi.

Dilshod Rajab she’riyatida bola qahramonining individualligi bilishga intilish, savol qo‘yish, so‘z shakli va ma’nosi ustida fikrlash, kuzatish hamda ijodiy xulosalar chiqarish orqali namoyon bo‘ladi. “Uchqunbekning savollari” turkumida qahramonning tafakkuriy faolligi, “So‘z o‘yini - zo‘r o‘yin”da esa lisoniy topqirligi muhim o‘rin tutadi.

Ikki ijodkor she’riyatidagi umumiy jihat shundaki, bola qahramoni tayyor axloqiy xulosani qabul qiluvchi obraz sifatida cheklanmaydi. U voqelikka o‘z munosabatini bildiradi, atrofdagi hodisalarni o‘zicha anglaydi va badiiy mazmunning yuzaga kelishida faol ishtirok etadi. Farqli jihat esa ushbu faollikning poetik ifodalanish usulida ko‘rinadi. Anvar Obidjon ko‘proq yumor, dialog va kutilmagan badiiy vaziyat orqali bola xarakterini ochsa, Dilshod Rajab savol-javob, so‘z o‘yini va bilish jarayonini poetik ifodalashga e’tibor qaratadi.

Bu farqlarni quyidagi jadvalda umumlashtirish mumkin:

Tahlil mezoni	Anvar Obidjon	Dilshod Rajab
Nutqiy faollik	Dadil murojaat, kutilmagan javob, dialog	Savol qo‘yish, fikr bildirish, so‘z bilan o‘ynash
Tafakkuriy faollik	Vaziyatni bolalarcha mantiq asosida talqin qilish	Hodisalarning sababini anglashga intilish
Ijodiy faollik	Tabiat va predmetlarni noodatiy tasavvur qilish	So‘z shakli va ma’nosi ustida ijodiy izlanish
Yumor	Kutilmagan vaziyat, kinoya va dialog	So‘z o‘yini, kuzatish va topqirlik
Poetik individuallik	Erkin munosabat va o‘ziga xos nutq	Bilishga qiziqish va lisoniy topqirlik

Jadvalda keltirilgan xususiyatlar ikki ijodkorning barcha she’rlariga birdek taalluqli bo‘lgan mutlaq tavsif emas, balki tanlangan matnlar asosida aniqlangan qiyosiy belgilar hisoblanadi.

Muhokama.

Zamonaviy bolalar she’riyatida bola qahramonining badiiy talqinini o‘rganish, eng avvalo, bolalar adabiyotining tarbiyaviy va estetik vazifalari o‘rtasidagi munosabatni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Chunki bola obrazining mustaqil fikrlovchi va faol subyekt sifatida tasvirlanishi adabiyotning tarbiyaviy mohiyatini yo‘qqa chiqarmaydi. Aksincha, tarbiyaviy g‘oyaning bevosita nasihat shaklida emas, balki qahramonning fikri, tanlovi, harakati va munosabati orqali ifodalanishiga imkon yaratadi.

Anvar Obidjonning “Birinchi maqtov” she’rida bolaning kattalar savoliga bergan kutilmagan javobi o‘quvchida kulgi uyg‘otadi. Biroq yumorning ortida bolaning vaziyatni o‘z tajribasi asosida tushunishi, sabab va natijani o‘zicha bog‘lashi yotadi. Shu sababli she’rning badiiy ta’siri faqat kulgi bilan chegaralanmaydi: u bola tafakkurining o‘ziga xosligini ham

namoyon etadi.

“Masxaraboz bola” she’rida esa nutqiy erkinlik va o‘ziga ishonch asosiy xarakter belgilariga aylanadi. Qahramon o‘z vazifasini anglaydi, o‘z pozitsiyasini ochiq ifodalaydi va boshqalarning xatti-harakatlariga munosabat bildirishdan cho‘chimaydi. Bu holat bola obrazining ijtimoiy munosabatlar doirasida ham faol subyekt sifatida shakllanishini ko‘rsatadi.

Dilshod Rajab she’riyatida bilishga intilish va savol qo‘yish bolaning tafakkuriy mustaqilligini namoyon etuvchi vositaga aylanadi. “Uchqunbekning savollari” turkumidagi savollar orqali bola atrofdagi olamni tayyor bilimlar yig‘indisi sifatida emas, balki anglanishi zarur bo‘lgan hodisalar tizimi sifatida qabul qiladi.

“So‘z o‘yini - zo‘r o‘yin” turkumida esa bolaning tilga munosabati o‘zgaradi. So‘z endi faqat tayyor aloqa vositasi emas, balki tajriba o‘tkazish, yangi ma’no hosil qilish va ijodiy tafakkurni namoyon etish maydoniga aylanadi. Bu holat bolaning lisoniy ongini badiiy ifodalashning o‘ziga xos shaklidir.

Demak, ikki ijodkor ijodidagi bola qahramonining subyektiv faollashuvi turli poetik mexanizmlar orqali namoyon bo‘ladi. Anvar Obidjonda bu jarayon ko‘proq yumor, dialog va noodatiy tasavvur bilan, Dilshod Rajabda esa savol, so‘z o‘yini va bilish faoliyati bilan bog‘liq.

Tadqiqot natijalari bola qahramonining poetik individualligini faqat xarakter xususiyatlari orqali emas, balki badiiy matnning mazmunini yaratishdagi ishtiroki orqali ham baholash zarurligini ko‘rsatadi. Qahramonning savoli, javobi, munosabati yoki tasavvuri she’rning mazmuniy harakatini yuzaga keltirsa, u badiiy jarayonning faol ishtirokchisiga aylanadi.

Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy bola obrazini tahlil qilishda quyidagi savollar muhim metodologik ahamiyatga ega:

Qahramon voqelikni mustaqil idrok etadimi?

U o‘z fikrini bevosita ifodalay oladimi?

Uning savollari va munosabati badiiy mazmunni rivojlantiradimi?

Qahramon mustaqil qaror yoki tashabbus ko‘rsatadimi?

Uning nutqi boshqa obrazlarning nutqidan farqlanadimi?

Qahramonning ijodiy tasavvuri badiiy voqelikni o‘zgartiradimi?

Ushbu savollar asosida she’riy matnni tahlil qilish bola qahramonining subyektiv faollashuv darajasini aniqroq belgilash imkonini beradi.

Xulosa.

XXI asr o‘zbek bolalar she’riyatida bola qahramoni talqinidagi o‘zgarishlarni o‘rganish uning badiiy matndagi subyektiv maqomi va poetik individualligini aniqlashni talab etadi. Anvar Obidjon va Dilshod Rajab ijodi misolida olib borilgan tahlillar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi.

Birinchidan, zamonaviy bolalar she’riyatida bola qahramonining badiiy vazifasi faqat tarbiyaviy g‘oyani ifodalash bilan cheklanmaydi. U voqelikni mustaqil idrok etuvchi, munosabat bildiruvchi va badiiy mazmunning shakllanishida ishtirok etuvchi faol obraz sifatida talqin qilinadi.

Ikkinchidan, bola qahramonining subyektiv faollashuvi nutqiy, tafakkuriy, xulqiy va ijodiy faollikning o‘zaro uyg‘unligi orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu belgilar qahramonning mustaqil shaxs sifatidagi badiiy maqomini belgilashda muhim mezon vazifasini bajaradi.

Uchinchidan, Anvar Obidjonning “Masxaraboz bola” she’rida nutqiy dadillik va mustaqil munosabat, “Birinchi maqtov” she’rida bolalarcha mantiq va kutilmagan xulosa, “Osmondan tushgan sozanda”da esa ijodiy tasavvur va noodatiy idrok bola qahramonining poetik individualligini shakllantiruvchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

To‘rtinchidan, Dilshod Rajabning “Uchqunbekning savollari” turkumida bolaning bilishga intilishi va tafakkuriy faolligi, “So‘z o‘yini - zo‘r o‘yin” turkumida esa lisoniy topqirligi hamda ijodiy fikrlashi muhim badiiy xususiyatlar sifatida ko‘zga tashlanadi.

Beshinchidan, ikki ijodkor she’riyatidagi umumiylik bola qahramonining tayyor xulosalarni qabul qiluvchi obraz sifatida cheklanmasligi, uning o‘z munosabati va individual fikrlash tarziga ega badiiy subyekt sifatida shakllanishida namoyon bo‘ladi. Farqli jihat esa ushbu faollikning poetik ifodalanish usullarida ko‘rinadi: Anvar Obidjon yumor, dialog va noodatiy tasvirga, Dilshod Rajab esa savol-javob, so‘z o‘yini va bilish jarayoniga ko‘proq murojaat qiladi.

Oltinchidan, zamonaviy bola qahramonining poetik yangilanishini faqat mavzular yoki tasvir obyektlarining o‘zgarishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Uning mohiyati qahramonning badiiy matndagi funksiyasi, voqelikka munosabati va mustaqil fikr ifodalash imkoniyatlarining kengayishida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] Obidjon A. O‘g‘irlangan pahlavon: she’rlar, doston va ertaklar. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 136 b.

[2] Rajab D. Baxshi bola - yaxshi bola: she’rlar, ertaklar, ssenariylar. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016. – 144 b. – ISBN 978-9943-02-931-6.

[3] Matchonov S. Dilshod Rajab she’riyatida ruhiyat talqini // Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Toshkent, 2023. – B. 65–70.

[4] Barakayev R., Ochilov E. Badiiy tasvir mahorati. – Toshkent: Muharrir, 2019.

[5] Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.